



KASB HUNARGA YO‘NALTIRISH ISHLARIDA MAKTAB PSIXOLOGINING O‘RNI

Allamurodova Dildora Saitovna

*Buxoro viloyati Buxoro shahar MMTBga qarashli 41-sonli umumiy o‘rta ta’lim
maktab amaliyotchi psixologi*

Prezidentimiz tomonidan yosh avlodga yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar yoshlarni ta’lim-tarbiya olishida, kelajakda kasb-hunar egallashiga va yetuk kadr bo‘lib chiqishiga poydevor bo‘lmoqda. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni kelajakda o‘z o‘rnini topishi va davlatimiz rivojiga o‘z hissasini qo‘shishi uchun ularni kasb-hunarga yo‘naltirish, qiziqishlari bo‘yicha kelajakda mutahassis kadr bo‘lib yetishishi uchun ta’lim tizimida bir qator tavsiyalar, qaror va buyruqlar mavjud. Bugungi kunda, mustaqil yurtimizdagi inson ruhiyatini o‘rganish, tadqiq qilish, qiziqishidan kelib chiqib kasb-hunarga yo‘naltirish va rivojlantirishga jiddiy e’tibor berish masalasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Hozirgi kunda ta’lim dargohining amaliyotchi psixologlari tomonidan o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari keng ko‘lamda tashkil etib kelinmoqda.

Misol uchun olib borilayotgan ishlarga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:

1. O‘quvchilarni kasb-hunar kolleji va oliy ta’limga olib borish, ta’lim tizimi bilan tanishtirish;
2. Maktabda “Kasblar guldastasi”, “Kasbim fahrim”, “Men tanlagan kasb”, “Kasb tiplari”, “Odam-tabiat”, “Odam-odam” kabi ko‘plab tadbirlarni tashkil etilishi;
3. Ertalabki saflanishda kasblar to‘g‘risida kichik maruzalarning tashkil etilishi;



4. Maktabning kirish qismida “Kasblar burchagi” ning tashkil etilishi;
5. 6-11-sinflarda kasb tanlash motivini aniqlash, intellekt tiplari, kasb talash kabi ko‘plab metodikalarning o‘tkazilishi va natijalar tahlil etilib tavsiyalar ishlab chiqilishi;
6. Sinflarda trening va davra suhbatlarining tashkil etilishi;
7. O‘quvchilarni to‘garaklarga yo‘naltirilishi va nazorat etilishi;
8. Tashxis markazi tomonidan tashkil etilgan kasbim kelajagim platformasida o‘quvchilar ishtirokini ta’minlanishi, nazorat etilishi;
9. Yuqori sinf o‘quvchilarini “Ustoz-shogird” a’nanasi bo‘yicha ish tashkil etish va nazorat qilish;
10. Oliy ta’limga yo‘naltirish bo‘yicha maktabda hamkorlikda ish tashkil etish, bitiruvchilarni fan o‘qituvchilariga biriktirish.

Yuqoridagi misollarni yana bir nechta sanash mumkin, maktab psixologi bu kabi ishlarni tashkillab olib borishi natijasida maktab o‘quvchilari kelajakda kasb-hunar egallab, hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishadi. Mashg‘ulotlarni bolalarni qiziqishlariga qarab tashkillash lozim. Boshlang‘ich sinflardagi bolalarga ertaklarni tinglash va muhokama qilish, unga o‘z fikrini bildirish, rebus, turli boshqotirmalarni yechiush bilan, ularning aqliy-intellektual qobiliyatini rivojlantirish orqali kasbga bo‘lgan ilk qiziqishi rivojlantirib boriladi. 12-13 yoshga kelib esa o‘quvchilarni ko‘plab mashxur insonlar - olimlar, yozuvchilar, bastakorlar, rassomlarning ilm- fanga, adabiyot, musiqa va san’atga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirib borishi mumkin. 15-16 yoshlarda o‘quvchilarni kasbiy ma’lumotlar, kasblarning insonlarga qo‘yadigan talablari, mehnat jarayonlarining xususiyatlari, mazkur kasblarni egallash borasida o‘quvchilar o‘rtasida har xil so‘rovnomalar, suhbatlar tashkil etish maqsadga muvofiq. Ularni o‘ziga yoqqan



kasbga qat'iy qiziqish hosil qilish uchun zarur ma'lumotlar bilan tanishtirish, to'g'ri maslahatlar berib boorish, o'zining individual-psixologik xususiyatlariga mos keladigan kasb-hunarga yo'naltirish foyda beradi. Mazkur ishlarning dastlabki bosqichi albatta, umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan amaliyotchi psixologlar tomonidan tashkil etiladi va nazoratga olinadi.

Kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida kasbiy o'zinini o'zi belgilashda o'quvchilar orasida ikkita toifadagi o'quvchilar ajralib turadi. Birinchilari, bu hayotda hali qiziq narsa topa olishmaydi. Shunday bo'ladiki, o'qituvchilar ularda biron bir fanga muhabbat uyg'ota olishmaydi va iste'dodlar hali ham tuproqqa ko'milgan holda bo'ladi, yashiringan holatda. Bunday bolalar yaxshi o'qishlari mumkin, lekin ular hech narsaga qaram emas, ularning hayoti zerikarli yoki sokin bo'lishi mumkin. Ikkinchi toifadagi bolalar ham o'qishda, ham boshqa turli xil faoliyat shakllari juda faol. Ular ham narsaga qiziqadi, bir vaqtning o'zida 3-4 ta to'garak, sport sessiyalarida qatnashadilar. Bundan tashqari, ular muvaffaqiyatga erishadilar. Ular aytganidek, agar inson iste'dodli bo'lsa, u hamma narsada qobiliyatlidir. Psixologlarning fikricha, kasb tanlashda insonning psixologik xususiyatlari va kasbning tegishli xususiyatlari o'rtasidagi muvofiqlik juda muhimdir. Kasb qiziqarli bo'lishi kerak. Agar o'quvchi hayvonlarni, o'simliklarni yaxshi ko'rsa, kasbiy faoliyatida yovvoyi tabiat obyektlarini uchratishi u uchun qiziqarli bo'ladi. O'quvchi texnologiyani yaxshi ko'rsa, unga bo'lgan qiziqishi sizni muhandis-dizayner yoki nazariy fizik faoliyatida qo'llab-quvvatlaydi. Har qanday kasb insonga "Kasbiy muhim sifatlar" deb ataluvchi fazilatatlarga bo'lishini taqozo etadi – masalan, korrektorga e'tibor bering, rassom uchun xayoliy fikrlash va uni aks ettira olish. Shuning uchun, ma'lum bir kasbni tanlashda, sizda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatatlarga mos keladigan qobiliyatlar bor yoki yo'qligini tushunish muhimdir. Shubhali vaziyatda, qobiliyatingiz maksimal bo'ladigan kasbni tanlashi, bu faoliyatda u eng katta muvaffaqiyatga erishadi.



Maktab psixologi har bir o'quvchi bilan ishlash jarayonida undan olingan test natijalari va suhbatlar davomida natijalarga asoslanib kasb tanlashda ko'maklashadi. Kasb-hunarga yo'naltiruvchi kasbga oid o'quv qo'llanmalar va adabiyotlar bilan ta'minlash ishlarini olib borishi lozim. Farzandiga to'g'ri kasb-hunar tanlashda ota-onalar ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlarni olib borishi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Kasb-hunarlar soni kun sayin ortib borayotgan bir davrda ota-onalar ular to'g'risida o'zlari to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishlari lozim. Vazifani – yoshlarga ilm berish, kasb-hunar egallashi uchun shart-sharoitlar yaratish. Yoshlar kasbni layoqatiga ko'ra tanlashi, to'g'ri hayot tarzini shakllantirishi, jamiyatning ma'naviy hamda iqtisodiy rivojiga turtki bo'ladi. Kasbiy mahorat ijtimoiy psixologik hodisa bo'lib, uning omillarini bilish kasbga to'g'ri yo'naltirishda katta ahamiyat kasb etadi. Sodda qilib aytganda, kasb tanlash har bir insonning shaxsiy ishi bo'lib, unga bevosita ta'sir ko'rsatish, bu ishni loyixalashtirish uchun ko'plab ishlarni tashkil etish lozim. Bu jarayonga ta'sir etuvchi omillar orasida oila muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilda farzandning qiziqishlari, yosh xususiyatlaridan kelib chiqib munosabat bo'lsa, u borgan sari o'ziga nisbatan talabchan, intiluvchan bo'lib boraveradi. Shuning uchun psixologlar maktabda o'quvchilarning ota-onalarini kichik tadbirlar tashkil etib, ularga farzandlarini kasb-hunarga yo'naltirishda tavsiyalar berishi, davra suhbatlarini o'tkazishi, farzandlarining yosh xususiyatlarida qanday munosabatda bo'lishi kerakligini tushuntirishi lozim. Yoshlarni bolalikdan kasb-hunarga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan avlodni kasbni ongli ravishda tanlashga tayyorlashdir. Kasbga yo'naltirishda yoshlarning kasbni erkin va mustaqil tanlashi uchun oiladagi cheklovlarni bartaf etish, maktabda qiziqishlari bo'yicha sharoitlar yaratish lozim.



Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, farzandlarimizni kasb-hunarga yo‘naltirishda har birimiz e’tiborli bolishimiz, ma’suliyatni his etgan holda, ularning taqdiri va kelajagi uchun barcha sharoit va qulayliklarni yaratishimiz, hamkorlikda ish tashkil etishimiz lozim. O‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish va jalb etish biz kabi amaliyotchi psixologlarning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxat

1. K. Jo‘raboyev, “O‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha psixologik- pedagogik o‘yinlar, mashqlar va metodikalar” .
2. O‘zbekiston Respublikasida o‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent 2002 y.
3. E. G. G‘oziyev Umumiy psixologiya. Toshkent. 2019 y 1-kitob.
- 4.<https://wikipedia.ru.org>
- 5.<https://.psychology academy>.